

"O'ZKIMYOSANOAT" AJ YANA BIR XALQARO REYTINGINI QO'LGA KIRITDI

// 07.12.2023

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-yana-bir-xalqaro-reytingini-qo-lga-kiritdi>



Joriy yilning 6-dekabr kuni Moody's xalqaro reyting agentligi "O'zkimyosanoat" AJga B1 (barqaror) darajadagi xalqaro kredit reytingini taqdim etdi.

Davlat rahbari tomonidan kimyo sanoatiga berilgan e'tibor tufayli "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalarini moliyaviy-iqtisodiy sog'lomlashtirish va ularning faoliyatini barqarorlashtirish, amaldagi ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, energiya tejamon texnologiyalarni joriy etish, mineral resurslarni chuqur qayta ishlash bo'yicha yangi quvvatlarni barpo etishga qaratilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali tarmoqni yanada rivojlantirish, davlat ulushini qisqartirish, sohani transformatsiya qilish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi.

Kimyo sanoatini yangi darajaga olib chiqish maqsadida "O'zkimyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarining xalqaro reytinglarni qo'lga kiritish borasida Moody's hamda Fitch Ratings xalqaro reyting agentliklari bilan olib borgan ishlari yakunlandi.

Avvvalroq "O'zkimyosanoat" AJ mamlakat kimyo sanoati tarixida ilk bor yirik xalqaro reyting agentligi Fitch Ratings ning BB- "Barqaror" toifasidagi xalqaro kredit reytingini qo'lga kiritgani haqida ma'lum qilingandi.

Xalqaro kredit reytingi birinchi marotaba qo'lga kiritilgan davrda uni tasdiqlash uchun 2-nufuzli reyting agentligi bilan ishlar olib borish shartligi belgilangan. Shu munosabat bilan, Moody's xalqaro reyting agentligi bilan ham ishlar olib borilib, hozirda ushbu agentlik tomonidan reyting tasdiqlandi.

Ma'lumot uchun: Fitch Ratings, Moody's — Amerika korporatsiyalari bo'lib, xalqaro reyting agentliklarining "BIG 3" dan o'rin olgan. Kompaniyalar jahon kredit bozorlarini mustaqil va istiqbolli kredit reytinglari, tushunchalar va ma'lumotlar bilan ta'minlashga ixtisoslashgan.

Mazkur reyting darajasi, "O'zkimyosanoat" AJni jahonning mashhur investorlar bozorlariga aniq va ravshan biznes strategiyasiga, shaffof moliyaviy hisobotlariga va kuchli korporativ boshqaruv tizimiga ega ishlab chiqaruvchi korxonalar sifatida tanitib bormoqda. Qo'lga kiritilgan mazkur yutuq, kelgusida "O'zkimyosanoat" AJning iqtisodiy barqarorligini yanada oshirishga xizmat qiladi hamda investitsiya loyihalarini amalga oshirishda xorijiy kreditlarni davlat kafolatisiz to'g'ridan-to'g'ri investitsiya mablag'larini jalb qilish imkoniyatini beradi.

"O'zkimyosanoat" AJ kelgusi yillarda reyting darajasini yanada yuksaltirish hamda uni barqaror saqlab qolish yo'lida istiqbolli loyihalarini tizimli ravishda davom ettiradi va mamlakatimiz kimyo sanoati rivoji yo'lida faoliyatini jadallik bilan olib boradi.